

## **Milliy brendlар va go‘zallik sanoatining rivojlanishida tabiiy kosmetika mahsulotlarining o‘rni**

Irodaxon Dilshod qizi Xabibullayeva

irishikramova@gmail.com

Muslima Nodirbek qizi Tolqinjonova

muslimatolqinjonova6@gmail.com

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda go‘zallik sanoatining zamonaviy bosqichda qanday o‘zgarishlarga uchrayotgani va bu jarayonda tabiiy kosmetika mahsulotlarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, inson salomatligi va ekologik xavfsizlik omillarining dolzarblashuvi natijasida foydalanuvchilar orasida tabiiy, kimyoviy moddalardan xoli mahsulotlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ushbu holat mahalliy brendlар - xususan, “Soft Rose by Muslima” kabi - innovatsion, estetik va sog‘lom parvarish vositalarini ishlab chiqishga zamin yaratmoqda.

**Kalit so‘zlar:** tabiiy kosmetika, milliy brend, go‘zallik sanoati, Soft Rose by Muslima

## **The role of natural cosmetics in the development of national brands and the beauty industry**

Irodakhon Dilshod kizi Khabibullayeva

irishikramova@gmail.com

Muslima Nodirbek kizi Tolqinjonova

muslimatolqinjonova6@gmail.com

Andijan branch of Kokand University

**Abstract:** This thesis analyzes the changes that the beauty industry is undergoing at the modern stage and the role of natural cosmetic products in this process. In particular, as a result of the increasing importance of human health and environmental safety factors, the demand for natural, chemical-free products is increasing among users. This situation creates the basis for the development of innovative, aesthetic and healthy care products by local brands, in particular, such as “Soft Rose by Muslima”.

**Keywords:** Natural cosmetics, National brand, Beauty industry, Soft Rose by Muslima

Kirish. Tadqiqotda milliy brend tushunchasi, uning iqtisodiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, tabiiy kosmetika vositalarining jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli yoritiladi. “Soft Rose by Muslima” brendi misolida xalq tabobati an’analari va zamonaviy kosmetologiya yutuqlarining muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvi ko‘rsatib beriladi. Ushbu brendning mahsulotlari - soch, kiprik va qosh o‘sishini rag‘batlantiruvchi tabiiy vositalar - ekologik tozaligi, samaradorligi va nafis dizayni bilan ajralib turadi.

Tabiiy kosmetika - bu inson terisi, sochi, kiprigi va umumiylashqini ko‘rinishini parvarish qilish uchun ishlatiladigan, tarkibida asosan o‘simlik ekstraktlari, efir yog‘lari, vitaminlar va boshqa tabiiy manbali moddalar mavjud bo‘lgan mahsulotlardir. Ular kimyoviy moddalardan holi bo‘lib, organizmga zarar yetkazmaydigan, ekologik xavfsiz vositalar sifatida qadrlanadi. Tabiiy kosmetik vositalar tarkibidagi moddalar inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, teri kasalliklariga moyil yoki allergiyaga sezgir odamlar uchun bu mahsulotlar ayni muddao hisoblanadi.

Bugungi kunda tabiiy kosmetika mahsulotlariga bo‘lgan talab jadal ortib bormoqda. Bu esa, bir tomonidan, foydalanuvchilar orasida sog‘lom va ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan e’tibor kuchayganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan, go‘zallik sanoatida tabiiy yondashuvlarga asoslangan innovatsion brendlari - masalan, “Soft Rose by Muslima” kabi - paydo bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda. Ushbu brendlari xalq tabobati an’analari va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirib, samarali, xavfsiz va nafis kosmetika vositalarini yaratmoqda. Shu tariqa tabiiy kosmetika nafaqat shaxsiy parvarish vositasi, balki sog‘lom turmush tarzi va estetik madaniyatning bir qismi sifatida qaralmoqda.

Milliy brend - bu muayyan mamlakatda yaratilgan, o‘zining mahsuloti, sifati, dizayni yoki xizmat ko‘rsatish madaniyati bilan shu davlatning qadriyatlari, madaniyati va innovatsion salohiyatini aks ettiruvchi tovar yoki xizmat belgisi hisoblanadi. Milliy brendlari ko‘pincha mahalliy xomashyo, xalqona an’analari, milliy urf-odatlar yoki ekologik toza yondashuvlarga tayangan holda yaratiladi. Ular nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham o‘z mamlakatining yuzi, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy yutuqlarining timsoli sifatida qaraladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham bir qator sohalarda milliy brendlari shakllanmoqda va ular orasida kosmetika sanoatida faoliyat yuritayotgan “Soft Rose by Muslima” kabi tabiiy mahsulotlarga asoslangan brendlari alohida o‘rin egallaydi. Ushbu brendlari nafaqat sifatli va foydali mahsulotlar ishlab chiqarish orqali bozor talabini qondiribgina qolmay, balki o‘zbek xalqining tabobat an’analari va estetik qarashlarini zamonaviy uslubda namoyon qilmoqda. Milliy brendlari iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va ichki mahsulotlarga ishonchni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Go‘zallik sanoati - bu insonning tashqi ko‘rinishini parvarish qilish, go‘zallikni saqlash va estetik ko‘rinishni yaxshilashga qaratilgan mahsulotlar va xizmatlar tizimini o‘z ichiga olgan yirik iqtisodiy tarmoqdir. Ushbu sanoat tarkibiga kosmetika, parfyumeriya, teri va soch parvarishi vositalari, go‘zallik salonlari, estetika markazlari hamda shaxsiy parvarish xizmatlari kiradi. Go‘zallik sanoatining doimiy rivojlanib borishi zamonaviy jamiyatda tashqi ko‘rinish, sog‘lom turmush tarzi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning muhimligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda bu soha global miqyosda sezilarli darajada o‘sdi. Ayniqsa, ekologik xavfsiz, tabiiy va sog‘lom mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi va raqamli marketingning rivojlanishi natijasida go‘zallik sanoati yangicha bosqichga chiqmoqda. Tabiiy kosmetik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi brendlar - xususan, “Soft Rose by Muslima” kabi - nafaqat go‘zallikni ta’minlash, balki foydalanuvchi salomatligini saqlash, kimyoviy vositalarga muqobil yaratish kabi dolzarb masalalarga javob bermoqda.

Go‘zallik sanoati, ayni paytda, milliy iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Mahalliy brendlar bu sohada o‘z o‘rnini topib, ichki bozorni import mahsulotlardan qisman bo‘lsa-da mustaqil qila olmoqda. Shu bilan birga, eksport salohiyati ortib, mamlakatning xalqaro obro‘siga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa go‘zallik sanoatini nafaqat estetik, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda.

“Soft Rose by Muslima” - bu tabiiy go‘zallikni saqlash va sog‘lom parvarishni targ‘ib qiluvchi mahalliy brend bo‘lib, uning mahsulotlari o‘simlik ekstraktlari, efir yog‘lari, vitaminlar va tabiiy meva konsentratlari asosida tayyorlangan. Brend asosan soch, kiprik va qosh o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Ushbu vositalar sun’iy kimyoviy moddalarsiz, ekologik toza shaklda yaratilgan bo‘lib, foydalanuvchiga estetik nafislik va salomatlikni birgalikda taqdim etadi.

“Soft Rose by Muslima” o‘z faoliyatida xalq tabobatining qadimiy an’analalarini zamonaviy kosmetologiya yutuqlari bilan uyg‘unlashtiradi. Masalan, mahsulotlarda kastor yog‘i, zaytun yog‘i, rayhon suvi kabi tabiiy komponentlardan foydalaniladi. Bu brend, ayniqsa, kimyoviy vositalardan to‘yan, tabiiy va xavfsiz mahsulotlarni afzal ko‘rvuchi ayollar uchun mo‘ljallangan. U o‘zining yengil tuzilmasi, tabiiy hidi va samarali ta’siri bilan iste’molchilar e’tiborini qozonmoqda.

Xulosa sifatida, tabiiy kosmetik vositalar asosida shakllangan mahalliy brendlar nafaqat go‘zallik sanoatini rivojlantirish, balki ichki bozorni mustahkamlash, iqtisodiy o‘sish va madaniy qadriyatlarni saqlashda ham muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. “Soft Rose by Muslima” bunga yorqin misoldir va u O‘zbekistonda milliy go‘zallik mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyatining oshayotganini namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova, Z. (2021). Kosmetologiya asoslari. Toshkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti.
2. Rasulov, R., & Islomova, M. (2020). Mahalliy brendlari va ularning iqtisodiyotdagi o'rni. Samarqand: Iqtisodiy fanlar akademiyasi nashriyoti.
3. Qurbanova, S. (2019). Go'zallik sanoati va zamonaviy yondashuvlar. Buxoro: "Ziyo Press".
4. Karimova, D. (2022). Tabiiy parvarish vositalarining xalq tabobatidagi o'rni. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
5. Tolqinjonova, Muslima. (2024). Soft Rose by Muslima: Tabiiy go'zallik uchun nafis parvarish. Qo'qon universiteti, Andijon filiali, 1-kurs ilmiy ishi.
6. Kadirova, G. (2020). Zamonaviy ayollar ehtiyojlari va kosmetik mahsulotlar bozori. Namangan: Ilmiy-amaliy nashrlar markazi.
7. Smith, J. (2018). Natural Beauty Products: Global Market Trends. New York: GreenTech Publishing.